

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Guliston davlat universiteti rektori

M.T.Xodjiyev

08 2024 yil

**60310100 - IQTISODIYOT (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA),
60410400 - MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYA, 60410100 -
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT (TARMOQLAR BO'YICHA)
MUTAXASSISLIKLARI BO'YICHA IKKINCHI TA'LIMGA KIRISH
SINOVLARI**

DASTURI

Guliston – 2024

Tuzuvchilar: O.Sattorqulov – “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri,
dotsent
G'. Berdiyev – GulDU “Buxgalteriya hisobi va
moliya” kafedrası mudiri, PhD, dotsent
A.Muxametov – “Buxgalteriya hisobi va moliya”
kafedrası dotsenti
A.Abduvoxidov - “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Taqrizchi: A. Burxanov – GulDU “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti,
iqtisod fanlari nomzodi

Guliston davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil “___”
“_____” №__ - sonli majlisda ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Kirish

60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410400 - Moliya va moliyaviy texnologiya, 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisliklari bo'yicha ikkinchi ta'limga kirish sinovlari dasturi O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan 24.07.1999 yilda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.08.1999 yilda №794 raqam bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha ikkinchi ta'lim olishga da'vogarlar:

- iqtisodiyot nazariyasining nazariy asoslari va ilmiy uslublarini; ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalarini; mulkchilik munosbatlarining mohiyati va mazmunini; tovar –pul munosabatlarining rivojlanishini; bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning O'zbekistondagi xususiyatlarini; talab va taklif nazariyasini; raqobat va narx navoning shakllanishini; iqtisodiy o'sish milliy boylik va makroiqtisodiy nisbatlar; iqtisodiyotning tsiklligi va makroiqtisodiy barqarorlik; yalpi ichki mahsulot; moliya tizimi, pul.kredit, banklar va ularni bozor iqtisodiyotidagi roli; iqtisodiyotning tartibga solishda davlatning roli; jahon xo'jaligi va jahon bozori va xalqaro savdoni umumiy xususiyatlarini bilishi kerak;

-ikkinchi ta'limga da'vogar iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, jadvallar tuzish, ularni iqtisodiy usullarni qo'llab tahlil qilish; kurs ishi yozish jarayonida adabiyotlardan, kartografik materiallardan foydalanish; barcha nazariy va amaliy bilimlarni ish faoliyatida qo'llay olish; iqtisodiy uslublarini metodlarini amalda qo'llash; iqtisodiy samaradorlikni amalga oshirishni tashkil etish; iqtisodiy axborotni yig'ish va tahlil qilish; sodir bo'layotgan milliy iqtisodiy muammolar echimini; iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy muammolarni hal etish tashkiliy formalarini; ayrim hudud va korxonalar miqyosida iqtisodiy muammolarini echish tadbirlarini; iqtisodiyot sohasidagi qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni tahlil qila olishi; barcha olgan nazariy va amaliy

bilimlarini ish faoliyatida qo‘llay olish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

- ikkinchi ta’limga da’vogar mamlakatimiz mintaqalaridagi iqtisodiy sharoitlarini o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi; mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari va hududiy tarkibini aniqlay olishi va tahlil qila olishi; O‘zbekistonning yangi iqtisodiy sharoitida rivojlanishini iqtiso-diy islohotlarga bog‘liq ekanligi va foydalanishni samarali tashkil etishni; tovar pul munosabatlarini takomillashtirishni; bozor iqtiso-diyotini mazmuni va o‘tish davri xususiyatlarining ahamiyatiga baho berish; tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga e’tibor berish; agrar sohadagi islohotlarni muhimligini anglash; iqtisodiy o‘sinh hoatiga baho berish; ishchi kuchi bandligining ahamiyatini anglash; moliya, pul, kredit, banklar va ularni iqtisodiyotdagi rolini baholash malakalariga ega bo‘lishi kerak.

IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING DASTURI MAZMUNI

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish usullari

Iqtisodiyot va uning bosh masalasi, iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanishi, ob’ekti, predmeti va vazifalari, iqtisodiy qonunlar kategoriyalar va iqtisodiy jarayonlarning ilmiy bilish uslublari.

Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

Ishlab chiqarish omillari, tarkibi va ishlab chiqarish jarayonining mazmuni, ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi, ishlab chiqarishning samaradorligi tushunchasi va uning ko‘rsatkichlari tahlili.

Ijtimoiy- iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Ijtimoiy-taraqqiyot bosqichlarining bilishga yondashuvlar, mulkchilik munosabatlari, ularning mohiyati va iqtisodiy mazmuni, mulkchilik shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni, O‘zbekistonda mulkni davlat tasaruvidan chiqarish va xusussiyashtirish yo‘llari, maqsadi va usullari.

Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishning asosidir

Natural va tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi, mazmuni va asosiy jihatlari, tovar va uning xususiyatlari, qiymatning mehnat nazariyasi va qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasi pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari tahlili.

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi

Bozor iqtisodiyotini mazmuni va uning asosiy belgilari, bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari, bozor tushunchasi va bozorning vazifalari, bozorning turlari va tuzilishi, bozor infratuzil-masi va uning unsurlari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari. O‘tish davri iqtisodiyoti nazariyasi, uning belgilari, turlari va qonuniyatlari, bozor iqtisodiyotiga o‘tish modellari, ularning farqlari va umumiy tomonlari, O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llarining xususiyatlari va tamoyillari, o‘tish davrida O‘zbekistonda bozor islohatlarning kontseptsiyasi va strategiyasi, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida Respublikada makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlan-tirish borasida 2017-2021 yillarga mo‘ljallab qabul qilingan Harakatlar strategiyasida erishilgan natijalar.

Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati

Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar, talab qonuni, taklif tushunchasi, taklif miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar, taklif qonuni, talab miqdori va taklif miqdori o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi, bozor muvozanati.

Raqobat va monopoliya

Raqobatning mohiyati, obe’ktiv asoslari va rivojlanish bosqichlari, raqobatning shakllari va usullari, monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari, O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik.

Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari

Narxning mazmuni va obe’ktiv asoslari, narxning hajmiga ta’sir etuvchi omillar va narxning vazifalari, narx turlari va ularning mazmuni., raqobatning turli

ko‘rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari, narx siyosati va uning O‘zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari.

Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi

Tadbirkorlik faoliyati mohiyati va asosiy belgilari, biznesni tashkil qilish asoslari, tadbirkorlik faoliyatining shakllari, aksionerlik jamiyatini tashkil qilish va faoliyatining asosiy tamoyillari, aktsiya va obligatsiyalar, menejment - korxonani boshqarish tizimi sifatida, marketing, uning vazifasi, tamoyillari va ahamiyati, tadbirkorlik kapitalining mohiyati, uning harakati va doiraviy aylanishining bosqichlari, tadbirkorlik kapitalining turlari: asosiy va aylanma kapital, tadbirkorlik kapitalining aylanish vaqti va aylanish tezligi, asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi, biznes uchun qulay muhit yaratish va uning kafolatlarini mustahkamlash – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida, aholi bandligini ta‘minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko‘rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish hamda davlat tomonidan oilaviy biznesni qo‘llab quvvatlash.

Korxonalar (firma) harajatlari va foydasi

Ishlab chiqarish harajatlari tushunchasi va uning tarkibi, ishlab chiqarish harajatlari turlari, qisqa va uzoq davrda ishlab chiqarish harajatlarining o‘zgarish tamoyillari, foydaning mazmuni, foyda normasi va massasi.

Ish haqi va mehnat munosabatlari

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari, ish haqining iqtisodiy mazmuni, ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari, mehnat munosabatlarini iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli.

Agrar munosabatlar va agrobiznes

Agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari, Ijara haqi va renta munosabatlarini, renta turlari, agrosanoat integratsiyasi, agrosanoat majmuasi va uning tarkibi, agrobiznes va uning turlari, O‘zbekistonda agrar islohotlarning amalga oshirish va yanada chuqurlashtirishning yo‘nalishlari, qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili davlat dasturining ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari.

Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'Ichamlari. Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari

Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, yalpi milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari, yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari, milliy hisoblar tizimi, uning maqsadi va vazifalari, O'zbekistonda 2019 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlarining ta'minlanishi. O'zbekistonda yalpi milliy mahsulotni ko'paytirish omillari va yo'llari.

Yalpi talab va yalpi taklif

Yalpi talab tushunchasi, yalpi talab egri chizig'i va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar, yalpi taklif tushunchasi, uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar, Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi. (Valras modeli).

Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

Iste'mol va jamg'armaning mazmuni. Iste'mol va jamg'arish fondlarining shakllanishi, iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi optimal nisbat. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va oxirgi moyillik, jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi, investitsiyalarning mazmuni va vazifalari, investitsiyalar turlari va investitsiya hajmiga ta'sir etuvchi omillar, O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi.

Iqtisodiy o'sish va milliy boylik

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari va turlari, iqtisodiy o'sishning maqsadi, omillari va yo'nalishlari, milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi, O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish omillari.

Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati

Iqtisodiy muvozanatlik, uni ta'minlash shart sharoitlari va aniqlash usullari, Iqtisodiy muvozanatlikni aniqlashda tarmoqlararo balans hamda daromad harajatlarni taqqoslash usullaridan foydalanish, iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari, O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdagi asosiy vazifalar,

O‘zbekistonda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifalari.

Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik

Tsikllik - iqtisodiy taraqqiyotning umumiy shakli ekanligi va uning sabablari. Iqtisodiy tsikl xaqida turlicha nazariyalar, iqtisodiy tsiklning fazalari. Iqtisodiy inqirozlarning turlari, agrar inqirozlar va ularning xususiyatlari, 2009-2012 yillarga mo‘ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturining mazmuni va ahamiyati, O‘zbekistonda inqirozli jarayonlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari va ularni bartaraf etish yo‘llari.

Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, ishchi kuchini takror hosil qilish, Ishchi kuchining bandligi, Ouken qonuni, ishchi kuchi bozorining mohiyati, tuzilishi va uni tartibga solish usullari, ishsizlik va uning turlari, ishsizlik darajasini aniqlash, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ishchi kuchi bozorini shakllantirish, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning tadbirlari. 2020 yilda ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash dasturining ahamiyati.

Moliya tizimi va moliyaviy siyosat

Moliyaning mohiyati va vazifalar, moliya tizimi va uning tarkibiy bo‘g‘inlari, byudjet taqchilligi va davlat qarzlari. Soliq tizimi va uning vazifalari, O‘zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari, Byudjet va soliq islohotlarini chuqurlashtirish, soliq tizi-mini soddalashtirish va unifikatsiya qilish hamda soliq yukini yanada kamaytirish – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish-ning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida.

Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli

Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari, pulga bo‘lgan talab va pul taklifi. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari, kreditning mohiyati, manbalari va

vazifalari, bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari, O'zbekistonda milliy valyutani mustaxkamlash vazifalari.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli

Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari, davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari, o'tish davri iqtisodiyotning shakllanishida davlatning roli va chegaralari, mahalliy o'z-o'zini boshqarishning iqtisodiy asosini mustahkamlash.

Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.

Hozirgi zamon bozor tizimi sharoitida ijtimoiy adolat kontseptsiyalarining rivojlanishi, aholining daromadlari, ularning turlari va manbalari, daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash, ijtimoiy himoyaning mazmuni va uning shakllari. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati.

Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi

Iqtisodiy rivojlanishning umumjaxon tamonlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi, jahon xo'jaligining globallasuvi yo'nalishlari va ziddiyatlari, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, jahon infrato'zilmasining rivojlanishi, jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish, jahon xo'jaligi globallasuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlari.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari, jahondagi asosiy integratsion guruhlarining amal qilish xususiyatlari, O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyati, davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi shart-sharoitlar, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston tashqi savdo munosabatlari geografiasining sifat jihatidan o'zgarib borishi.

Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari

Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari, to'lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari, Transmilliy kompaniyalar(TMK)ning tashkil topish evolyutsiyasi, zamonaviy moliyaviy kapital faoliyatining xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan

Harakatlar strategiyasi

Harakatlar strategiyasining maqsadi, mazmuni va vazifalari. Uning asosiy yo'nalishlari. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish. Xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish. Xududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish. Investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish. Ijtimoiy sohani rivojlantirish. Ijtimoiy soha tarkibi.

2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot

Strategiyasining mazmun-mohiyati

Mamlakatimizni 2017 — 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan va amalga oshirilgan ishlar ko'lami. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan ta'sirchan choralar.

So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari hamda ularni amalga oshirilish jarayoni.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi mohiyati.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar (2026 yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olinishi, ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish, jumladan ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish; kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish; «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha alohida ma‘lumotlar bazasini yaratish, jumladan «Temir daftar», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari»ni «Ijtimoiy himoya yagona reestri» bilan integratsiya qilish).

Taraqqiyot strategiyasida ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar va ularning ahamiyati.

Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar ko‘lami va ularni amalga oshirish mexanizmi. 2022 yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023 yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko‘rsatkichdan oshmasligini ta‘minlab jarayoni. Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha chiqarish choralari. Iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha qabl qilinayotgan amaliy choralar. «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026

yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari.

Tadbirkorlik sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning ahamiyati. 2022 yilda tadbirkorlik sub'ektlarida masofaviy (onlayn) faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarining mavjudligidan hamda ularning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish tartib-taomillari va ularni axamiyati.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor uchun keng yo'l ochish maqsadida olib borilayotgan tadbirlar ko'lami.

Taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarning o'rni va ko'lami.

Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar etakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o'rganish va tahlil qilish natijasiga ko'ra ularni rivojlantirish bo'yicha «yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish amaliyoti.

«O'zbekiston — 2030» Strategiyasining mazmun-mohiyati

«O'zbekiston — 2030» strategiyasidagi asosiy g'oyalar, ya'ni barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

«O'zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlari. «O'zbekiston — 2030» strategiyasidagi asosiy yo'nalishlar va maqsadlar.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi"dagi PF-60-son farmoni
2. Prezident Sh. Mirziyoyev raisligida aholini kasb-hunarga o'qitish va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi, 15.06.2022 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi.
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.2020 yil 24 yanvar. Manba: [http: press-servis.uz](http://press-servis.uz)
5. Shodmonov Sh. Sh., G'ofurov U.V. "Iqtisodiyot nazariyasi", Darslik, T.: 2010.-728 bet.
6. O'lmasov A., Vaxobov A.V, "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik. T."Sharq": 2006.-400bet.
7. Shodmonov Sh, Jo'raev T, Alimov R "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik, T.: 2002.
8. V.D. Kamaev, M.Z.Ilchikov,T.A. Borisovskaya. Ekonomicheskaya teoriya.Kratkiy kurs:uchebnik. – M.:KNORUS, 2010.-384.str.
9. I.K.Stankovskaya, I.A.Strelets, Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. 3-e izd.,ispr.-M.: "Eksmo", 2009,-448 str.
10. Samuelson Pol E.,Nordxaus Vilyam D.Ekonomika. Uchebnik. 18-e izd.:Per s angl. M.:OOO "I.D.Vilyams", 2009.-1360 str.
11. Makkonnel K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: printsipo', problemo' i politika. Uchebnik. 17-izd. –M,2009.-916 str-
12. Shodmonov Sh., G'afurov U., Xajiev B, Xalilov M. Iqtisodiyot nazariyasi

fanidan o'quv uslubiy majmua (I-qism). - T,: TDIU, 2010, -267 bet.

13. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risida O'z.R.Prezidentining farmoni.G'G'O'zbekiston bunyodkori gazetasi. №11. 10.02.2017.

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» Strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Biz kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T."O'zbekiston" 2017 y.
2. Shodmonov Sh "Iqtisodiyot nazariyasi". Ma'ruza matnlar to'plami. T.: 2010
3. Tuxliev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. – T. O'zbekiston. 2002 y. 27-60b.
4. Dodoboev A. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Farg'ona 2004y. 24-56b.
5. Ishmuxammedov A. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2004 y.
6. Qodirov A "Iqtisodiyot nazariyasi"-Toshkent texnika universiteti, 1997y. 125 b.

60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410400 - Moliya va moliyaviy texnologiya, 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisliklari bo'yicha ikkinchi ta'limga kirish sinovlarini baholash me'zoni

Guliston davlat universitetida 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410400 - Moliya va moliyaviy texnologiya, 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisliklari bo'yicha ikkinchi ta'limga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.08.1999 yilda №794 raqam bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan 24.07.1999 yilda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi oliy ta'lim olish istagini bildirganlar universitet qabul komissiyasiga Nizom talablarida keltirib o'tilgan hujjatlarni rasmiylashtirib topshirganlaridan so'ng, barcha iqtisodiy fanlar uchun uslubiy asos va manba bo'lib xizmat qiluvchi "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan 50 (ellik) ta test savollaridan iborat sinov topshiradilar. Mazkur test savollari tarkibiga Iqtisodiyot nazariyasining barcha bo'lim-larini qamrab oluvchi, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi Taraqqiyot strategiyasidan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasidan test savollari kiritiladi. Kirish sinovi – test jarayonining adolatli o'tishini ta'minlash maqsadida test universitetning multimediya markazida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda o'tkaziladi. Test sinovlari jarayonining davomiyligi 60 daqiqani tashkil etadi. Har bir to'g'ri javob berilgan test savoliga 2,0 (ikki) ball beriladi. Test sinovlarida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball mos ravishda 100 (yuz) ballni tashkil etadi. Eng yuqori ball to'plaganlar universitet qabul kvotasi doirasida ikkinchi ta'lim olishga tavsiya etiladilar.

Izoh: Saralash bali foiz xisobida 55 dan kam bo'lmasligi lozim. 2-nchi oliy ta'lim olishga da'vogarlar saralash balidan yuqori ball to'plaganlar orasidan yuqoridan pastga ketma-ketlik asosida tavsiya etiladi.